

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BAYJANOV DAMIR SARSENGALIEVICH**

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI  
ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
economic sciences**

**Bayjanov Damir Sarsengalievich**

Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali  
moliyalashtirishni takomillashtirish..... 3

**Байжанов Дамир Сарсенгалиевич**

Совершенствование финансирования инвестиционной деятельности  
с помощью исламских финансовых инструментов..... 31

**Baydzhhanov Damir Sarsengalievich**

Improving the financing of investment activities with the help of Islamic  
financial instruments..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**BAYJANOV DAMIR SARSENGALIEVICH**

**INVESTITSIYA FAOLIYATINI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI  
ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt157 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Isakov Janabay Yakipbayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, profeccor

**Rasmiy opponentlar:** **Almardonov Ilhom Muzrobshoxovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, profeccor

**Haydarov Nizomiddin Xamrayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, profeccor

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "8" "11" soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "25" "10" kuni tarqatildi.

(2023-yil "25" "10" dagi 62- raqamli reestr bayonnomasi.)



**M.P. Eshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
rasi, i.f.d., professor

**U.V. G'afurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar rasi, i.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosidagi global raqobatning kuchayishi istiqbolli soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmining keskin oshishiga olib kelib, buning ta'sirida investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga talab ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 2024-yilga kelib 3,96 trillion AQSh dollariga etishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo'lgan to'siqlariga qaramay, hukumatlarning qo'llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya mahsulotlariga yuqori talab o'laroq ularning moliya bozorlaridagi ishtiroki chuqurlashdi va islom moliya tarmog'i barcha jabhalarda kengayishda davom etmoqda<sup>1</sup>. Global pandemiya sharoiti keltirib chiqargan zamonaviy moliya tizimi yangi prinsiplar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qiladi.

Jahonda global beqarorlik sharoitida islom moliya instrumentlari investitsiya resurslari bozoridagi barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi hisoblanib, ular orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda. Islom moliya bozorlarining global ahamiyati kuchayib borishi, islom mamlakatlari aholisining soni ko'pligi, o'rtacha yoshi pastligi, tabiiy resurslarga boyligi, iste'mol salohiyati kengayib borishi singari omillarning investitsiya bozorlariga ta'siri, investitsiya faoliyatini samarali moliyalashtirishning muqobil yo'li sifatidagi xususiyatlari, islomiy moliyalashtirish modelining afzallik va muammoli jihatlari, global inqiroz hodisalariga bardoshlilik, uni zamonaviy moliya sektori muammolarini hal etishning muqobil yondashuvi sifatida takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning istiqboldagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim moliyaviy omili sifatida faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilmogda. Respublikaning sanoat va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish orqali hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, eksportni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiyalarni tizimli rejalashtirish va investitsiya loyihalarini samarali boshqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturida "markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni o'zlashtirishning yig'ma maqsadli ko'rsatkichlari 521 603 mlrd. so'mga yetkazishni, shu jumladan 178 353 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilishi"<sup>2</sup>ning manzilli dasturi belgilab berilgan. Mamlakatdagi keng ko'lamlı islohotlar va faol investitsiya siyosati samaradorligini yanada oshirish, avvalo, investitsiya faoliyatini

<sup>1</sup> [www.unctad.org](http://www.unctad.org). World Investment Report 2021

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги ПҚ-72-сонли "Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Инвестиция дастурини тасдиқлаш ҳамда инвестиция лойиҳаларини бошқаришнинг янги ёндашув ва механизмларини жорий этиш тўғрисида"ги қарори

rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida mukammal tizimli moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida to'g'risida"gi, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi** Investitsion faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish usullarning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari Gait A. and Worthington A., Iqbal Z., Mirakhor A., El-Gamal Mahmoud A., Rafik Yunus al-Misri., R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abikayev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobiskiy, S.E.Shepetova, A.B.Belskiy, N.Berzon, Yu.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krilov, V.M.Vlasova, M.G.Egorova, D.A.Lavrik singari olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Gait , A. and Worthington, A. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 783-808.,Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic fi nance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p., El-Gamal Mahmoud A. Islamic fi nance: law, economics and practice. Cambridge: Cambridge University press, 2006 year.222 p.,Rafik Yunus al-Misri. Fikkh imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320., Stobaugh R. How to Analyze Foreign Investment Climates. -Harvard Business Review, September October 1969.-p.189. Stoun R. Social Account at the Regional Level: a Survey. In: Regional Economic Planning. Techniques of Analysis for Less Developed Areas / Ed. ByW.Isardand J.Camberland. OECD. Paris, 1961; Абыкаев Н. Инвестиционный потенциал и экономический рост (методологический аспект). //Экономист. 2000. - № 6. - С. 58-66.; Андрианов В.Д. Россия: экономический и инвестиционный потенциал. М.:ОАО«Издательство «Экономика», 1999. - 662с.; Бард В.С., Бузулуков С.Н., Дрогобыцкий И.Н.,Щепетова С.Е. Инвестиционный потенциал Российской экономики. – М.: Издательство «Экзамен», 2003. – 320 с.; Бельский А.В. Анализ инвестиционной привлекательности регионов // Сборник научных трудов: Региональная экономика проблемы и перспективы. – М., 2003.-320 с.; 16. Берзон Н. Формирование инвестиционного климата в экономике // Вопросы экономики. 2001. -№ 7. - С. 104-114.; Вернадский Ю.И., Терещенко О.В. Интеграция финансового и промышленного капитала как фактор роста инвестиционного потенциала реального сектора экономики // Регион: экономика и социология. 2002. - № 1. - с. 97-102.; Бочаров В.В. Финансово-кредитные методы регулирования рынка инвестиций. – М.: Финансы и статистика, 1993 – 158 с.; Крылов Э.И., Власова В.М., Егорова М.Г. и др. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия. – М.: Финансы и статистика, 2003. 192 с.; Лаврик Д.А.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol investitsiya siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan uni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda yanada takomillashtirish bo'yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog'liq.

Investitsiya faoliyati hamda investitsiyalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar E.T.Qodirov, J.K.Majidov, R.A.Musayev va Yu.D.Magomedova, I.A. Zaripov, B.Jurayev, D.G.G'ozibekov, N.G'.Karimov, N.X.Jumayev, F.O'.Dodiyev, N.R.Qo'ziyeva, N.X.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, R.B.Saidov, E.I.Nosirov, O'.A. Haydarov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>4</sup>.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda islom moliya institutlari faoliyati rivojlangan bir qator davlatlarda islomiy moliyalashtirish huquqiy tizimlar va bozor tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari tufayli islom moliyaviy xizmatlar bozori qatnashchilaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga asoslangan holda mamlakatimizda investitsiya faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan dissertatsiya ishlari, monografik tadqiqotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar juda kam sonli bo'lib, ularning amaliy ahamiyati sezilarli darajada emas. Ushbu holat dissertatsiya mavzusini tanlashga asosiy sabab hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning zarurligi va funksional elementlari asosida ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

---

Диагностика региона основа для эффективного размещения инвестиций. // Сборник научных трудов: Управление экономикой: методы, модели, технологии. – Уфа: УГАТУ, 2001. - 246 с.

<sup>4</sup> Қодиров Э.Т., Маждидов Ж.К. Хорижий мамлакатларда банк иши. Ўқув қўлланма. – Т., 2016 йил. 184 бет., Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>, Islomiy moliya va bank tizimi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019-y. 138-bet., Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш муаммолари. – Т., 2002. и.ф.д. дисс. автореф. 11-14 б. Каримов Н.Ғ. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари. – Т.: Фан ва технология, 2007. – 240 б., Жумаев Н.Х. Камабағаллик: Даромад тенгсизлигимиз ёки таълим олишга эътиборсизлик. Мақола. //Халқ сўзи, 2020 йил 25 июнь. Додиев Ф.Ў. Инвестицион фаолиятини молиявий рағбатлантириш: иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 1998.-22 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизминини такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2008; Ҳайдаров Н.Х. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари (хорижий инвестицияли корхоналар мисолида): иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент. 2003.-22 б.; Мустафақулов Ш.И. Ўзбекистонда инвестицион муҳит жозибadorлигини оширишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. и.ф.д. (DSc). дисс. автореферати. – Т., 2017.; Саидов Р.Б. Ўзбекистон Республикаси уй хўжаликларида инвестициялашни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент. 2011.-18 б.; Ғозибеков Д.Ғ., Носиров Э.И. Ўзбекистон иқтисодиётига хорижий инвестицияларни жалб қилиш. Рисола. – Т.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 б. Ҳайдаров Ў.А. Миллий иқтисодиёт доирасида инвестиция фаолиятини молиялаштириш механизминини такомиллаштириш йўллари.

respublikamizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

mamlakatimizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish manbalarini shakllantirish yo'llarini o'rganish;

investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirish usullariga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish va shu asosida baho berish;

investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish usullarining ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasida amaldagi investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekiston Respublikasida amaldagi investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot vazifasini hal etishda ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, korrelyasion va regression tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

turli va o'zaro bog'langan investitsion loyihalar yo'nalishini tanlash va portfelini tuzish orqali moliyalashtirishda "Murobaha" islomiy instrumentidan foydalanish asoslangan;

Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni davlat xususiy-sherikchilik munosabatlariga asoslangan "Mudoraba" islomiy instrumenti asosida moliyalashtirish taklifi asoslangan;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari faoliyatini moliyalashtirishda xorijiy davlatlardagi mavjud islomiy moliyalashtirishga asoslangan banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini "Salam" islomiy mikromoliyalash instrumenti orqali jalb etish taklifi asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'larining hajmining ortish tendensiyasi asosida 2027-yilga qadar asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

investitsiyalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari asoslangan;

an'anaviy va islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish qiyosiy tahlil qilinib, hozirgi sharoitda O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish zarurligi ko'rsatib berilgan;

islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llash imkoniyatlari bayon etilgan;

investitsiya faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish usullari tasniflangan;

pandemiya sharoitida investitsiya faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish barqarorligi sabablari ko'rsatib berilgan;

investitsiya faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishda investitsiyalarni diversifikatsiya qilishdagi imkoniyatlari yoritilgan;

milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni tatbiq qilish bo'yicha tavsiya va xulosalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik hisobotlaridan olinganligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va nazariy-uslubiy tavsifdagi takliflardan investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari yordamida moliyalashtirishni takomillashtirish orqali istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyot doirasida raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-metodologik va uslubiy jihatlarini takomillashtirish, maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy ishning amaliy tavsifdagi natijalaridan milliy iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirishda, xususan, islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga tadbirkorlar va aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlari, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlar, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, mazkur soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Investitsiya va innovatsiya", "Investitsiya", "Investitsiyalarni boshqarish", "Kapital investitsiya tahlili" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy etilishi.** O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatni islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

turli va o'zaro bog'langan investitsion loyihalar yo'nalishini tanlash va portfelini tuzish orqali moliyalashtirishda "Murobaha" islomiy instrumentidan foydalanish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 15-noyabrdagi SM/08-10/3462-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy

taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Orolbo‘yi innovatsiyalar platformasi orqali loyihalar va dasturlar portfellarini, ularning ekologik va texnik-iqtisodiy ekspertizasini, tenderlarni joriy qilish va natijalardan kelib chiqib, monitoring va baholashni tasdiqlash hamda muvofiqlashtirish uchun kelishilgan va soddalashtirilgan tartib va mexanizmlar ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni davlat xususiy-sherikchilik munosabatlariga asoslangan “Mudoraba” islomiy instrumenti asosida moliyalashtirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 15-noyabrdagi SM/08-10/3462-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kichik va o‘rta qishloq xo‘jaligi korxonalarining rentabelligini va unumdorligini oshirish uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining uyushmalarini, kooperativlarini tashkil qilish imkoni yaratilgan;

qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari faoliyatini moliyalashtirishda xorijiy davlatlardagi mavjud islomiy moliyalashtirishga asoslangan banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag‘larini “Salam” islomiy mikromoliyalash instrumenti orqali jalb etish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 15-noyabrdagi SM/08-10/3462-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga zamonaviy texnologiyani qo‘llashni rag‘batlantirish uchun bank mahsulotlarini qo‘shma moliyalashtirish /subsidiyalash tizimini joriy qilish imkoni yaratilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hajmining ortish tendensiyasi asosida 2027 yilga qadar asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 15-noyabrdagi SM/08-10/3462-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hamda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining istiqbol ko‘rsatkichlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, ulardan 4 tasi xalqaro tadbirlarda ma’ruzalar sifatida taqdim etildi.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda 6 ta maqola, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda 2 ta maqola va 6 ta maqola respublika jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotimizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari”** nomli birinchi bobida investitsiya faoliyatining mazmuni, uni moliyalashtirish zarurligi, jarayoni va funksiyalari, investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish tizimi, manbalari va unga ta'sir etuvchi omillar, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning ta'siri o'rganilgan.

Bugungi kunda jahonda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish tarmog'i tez rivojlanib borayotgan va investitsiya faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, investitsiya loyihalari katta xarajatlarni talab qiladi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar uchun islom moliyasi tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va korxonalar hamda tashkilotlar mablag'larini davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddadir. Buning uchun albatta milliy iqtisodiyotga yangicha yondashuv va ilmiy izlanishlar olib borish lozim, chunonchi, an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi hozirgi davrda muhim va dolzarb hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirish va uning faoliyati bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Xususan, so'nggi yillarda islom moliyasining nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan islom iqtisodiyoti keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Xorijlik olimlar Gait va Uortington **“Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi”**<sup>5</sup> deya ta'kidlaganlar.

---

<sup>5</sup> Gait, A. and Worthington, A. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 2008 y.783-808 p.

Levis va Algaoudning fikrlariga ko'ra, "islom moliyasining o'ziga xosligini yoki asosini tashkil etuvchi beshta diniy xususiyat mavjud, ya'ni riba (foiz), harom (ta'qiqlangan) yoki halol (ruxsat etilgan), g'arar (noaniqlik) yoki maysir (qimor), zakot va shariat (islom) kengashi. Islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi"dan farq qiladi"<sup>6</sup>.

Shuningdek, Miraxor va Iqbolning fikrlaricha, "Islomiy moliya tizimini an'anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (riba) ta'qiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manipulyasiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag'allarni (ya'ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg'u beradi"<sup>7</sup>. Maxmud va El-Xalifa Muxammadning islom banklari tarixini o'rganishga bag'ishlangan asarlarida islom banklarining to'liq shariatlar me'yoriga asoslanishi, lekin islom tamoyillariga asoslanmagan biznes muhitida uning qo'llanilishi mumkinligi e'tirof etilgan<sup>8</sup>.

Rossiyalik olimlar Bekkin va Kochmolaning tadqiqotlariga ko'ra, "Islom moliya institutlari to'lig'icha islom qoidalari joriy etilmagan, masalan, Malayziya va Turkiya mamlakatlarida muvaffaqiyatli operatsiyalarni amalga oshirmoqda"<sup>9</sup>.

Dissertatsiyaning **"Investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning zamonaviy holati tahlili"** nomli ikkinchi bobida O'zbekistonda Islom banklari tomonidan islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishning hozirgi holati va tahlili, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish bo'yicha yondashuv va kutilmalar tahlili hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullariga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil qilingan.

Islomiy moliyalashtirish adolatli, kafolatli, axloqiy, barqaror, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli moliyalashdir. Pul bilan ishlashning bunday shakli asosan risklarni taqsimlashga yordam beradi, moliya sektorini real iqtisodiyot bilan bog'laydi va moliyaviy integratsiya va ijtimoiy ta'minot muhimligini ta'kidlaydi.

Islomiy moliyalashtirish mamlakat investitsiya faoliyatining rivojlanishi va moliyaviy integratsiyani kengaytirishga xizmat qiladi.

Islomiy moliyalashtirish tizimining asosiy tamoyillaridan biri moliyaviy bitim bo'yicha ribo (foiz) olish va to'lashning ta'qiqlanishi hisoblanadi. Ribo atamasi har qanday qiziqish shakllarini qamrab oladi va faqat sudxo'rlik yoki haddan tashqari qiziqish bilan cheklanmaydi. Shuni yodda tutish kerakki, islomiy huquq pul va pul vositalarini tovar emas, faqat ayirboshlash vositasi sifatida qabul qiladi.

---

<sup>6</sup> Lewis M.K. and Algaoud L.M. Islamic Banking. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001 y.253-258 p.

<sup>7</sup> Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic finance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.


<sup>8</sup> El-Gamal Mahmoud A. Islamic finance: law, economics and practice. Cambridge University press,2006 year.222

<sup>9</sup> Кочмола К.В. Исламские финансовые институты в мировой финансовой архитектуре.Ростов-на-Дону: РГЭУ «РИНХ», 2007 г. 368 с.

Demak, har qanday foyda aktivga yoki ishtirokka va qo‘shma korxonada riskni qabul qilishga bog‘lab qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Sof qarz qimmatli qog‘ozi “aktivlar bilan bog‘liq” qimmatli qog‘oz bilan, real aktivni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish, eng maqbul ulush asosida moliyalashtirish bo‘lgan turli hamkorlik shakllari bilan almashtiriladi.

Islomiy moliyalashtirish instrumentlari xalqaro standartlar bilan qat’iy belgilangan asos bo‘luvchi vositalar quyidagilar hisoblanadi:

- 1) Sherikchilik shartnomasi (ulushli moliyalashtirish): muzoraba, mushoraka;
- 2) Savdo kelishuvi (qarz bilan bog‘liq moliyalashtirish). Mazkur vositalar o‘rtasidagi tafovut aktivlarni sotish muddatlari bilan ta’riflanadi: murobaha, ijara, istisno, salam.
- 3) Quyidagilar qo‘shimcha vositalar hisoblanadi: qarzi hasan (foizsiz qarz), agentlik to‘lovlari (vakolat, ju’la), sukuk (kapitalni maqsadli qimmatbaho qog‘ozlarga yo‘naltirish).



**1-rasm. Investitsiya faoliyatida islomiy moliyalashtirish tamoyillari<sup>10</sup>**


Demak, islomiy moliya-kredit muassasalari amaliy faoliyatida tez-tez qo‘llab turiluvchi va mamlakatimizga ma’lum bo‘lgan islomiy moliyaviy vositalarni shu tarzda o‘rganib va umumlashtirib, ularni uchta shaklga ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) sherikchilikka (yoki foyda va zararlarni taqsimlashga, boshqacha aytganda ulushli moliyalashtirishga) asoslangan mahsulotlar: muzoraba va mushoraka;

b) oldi-sotdi bitimlarida (boshqacha aytganda, qarz bilan bog‘liq moliyalashtirish) ishtirok etishga asoslangan mahsulotlar: murobaha, ijara (lizing), salam, istisno‘;

v) bank komissiya (tarif)lari to‘lashga asoslangan mahsulotlar (yoki komission mahsulotlar); vakolat (agentlik bitimi).

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tuzildi.



**2-rasm. Islomiy moliyalashtirish instrumentlari<sup>11</sup>**

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirishda ilg'or xalqaro tajribani tatbiq etish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga a'ziligini e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4147-sonli "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasiga a'zoligi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga asosan, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi rahbariyati tomonidan O'zbekiston Respublikasining Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi (IEKSIK) a'ziligiga kirishi bo'yicha amaliy ishlar olib borish kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi ustav kapitaliga O'zbekiston Respublikasi badallarini to'lash tartibi belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi IEKSIKning 347 500 AQSh dollari ekvivalentidagi (umumiy qiymati 250 000 islom dinoriga teng) 250 ta aksiyasiga hamda XISMKning 695 000 AQSh dollari ekvivalentidagi (umumiy qiymati 500 000 islom dinoriga teng) 50 dona aksiyasiga o'rnatilgan tartibda obuna bo'lish vazifasi belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti qo'shimcha manbalari hisobidan IEKSIK aksiyalarining 50 foiziga obuna haqini to'lash uchun 125 000 islom dinori ekvivalenti hamda XISMK aksiyalariga obuna haqini to'lash uchun 500000 islom dinori ekvivalenti miqdoridagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga ajratilishi belgilab berildi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzildi.

**Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug'urtalash islom korporatsiyasi ustav kapitaliga O'zbekiston Respublikasi badallarini to'lash jadvali<sup>12</sup>**

№	Yillar	IEKSIK aksiyalari bo'yicha badallar to'lovi			XISMK aksiyalari bo'yicha badallar to'lovi			Yillar bo'yicha jami to'lovlar AQSH dollarida
		Aksiyalar soni	Aksiyalar narxi		Aksiyalar soni	Aksiyalar narxi		
			Islom dinorida	AQSH dollarida		Islom dinorida	AQSH dollarida	
1.	2019-y.	62	62 000,0	86 180,0	16	160 000,0	222 400,0	308 580,0
2.	2020-y.	63	63 000,0	87 570,0	17	170 000,0	236 300,0	323 870,0
3.	2021-y.	63	63 000,0	87 570,0	17	170 000,0	236 300,0	323 870,0
4.	2022-y.	64	64 000,0	88960,0	17	172 000,0	327 260,0	327 260,0
JAMI:		252	252 000,0	173 750,0	68	672 000,0	933 300,0	1 283 580,0

Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga olgan holda mamlakatimizda Islom bankchiligi joriy qilinishining asosiy mezonlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar va banklar faoliyati to'g'risidagi qonunlarga, soliq va fuqarolik kodekslariga va boshqa qonun osti hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki alohida qonun qabul qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, islomiy banklarning moliyalashtirish mexanizmlaridan kelib chiqib, ta'kidlash kerakki, aholining moliyalashtirishga muhtoj qatlami ham mablag'ga ega bo'lib, undan foyda olishni ko'zlayotgan tomon ham birdek manfaatdordir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, shu jumladan, ishlab chiqarish va investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish, hududda muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, shu asosda aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-sonli "2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagilar 2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

a) muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida: 141 ming nafardan ziyod aholini markazlashgan ichimlik suvi ta'minoti tarmog'iga ulash va aholining markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 61,5 foizdan 70,1 foizga yetkazish;

Nukus shahri, Taxiatosh va Xo'jayli tumanlari markazlarida 105 ming nafardan ziyod aholi xonadonlarini oqova suv tarmoqlariga ulash va ularning oqova suv xizmatlari bilan ta'minlash darajasini 14,1 foizdan 20,2 foizga yetkazish;

Nukus shahri va Taxiatosh tumanida ko'p kvartirali uy-joylarning ichki issiqlik ta'minoti tizimlarini to'liq rekonstruksiya qilish; 9 ta aholi punktida tabiiy

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4147-son qaroriga ilova

gaz tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va 246 ta aholi punktini maishiy gaz ballonlari bilan uzluksiz ta'minlash; 442 ta transformator punktini va 1 023,8 km elektr uzatish tarmoqlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish va elektr energiyasi iste'moli quvvatini 1,5 milliard kVt/coardan 2,1 milliard kVt/coarga oshirish; 444,7 km xalqaro va respublika ahamiyatiga molik hamda 408,1 km mahalliy va ichki avtomobil yo'llarini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish; 290 ta aholi yashash punktiga optik tolali tarmoqlarni tortish, 150 ta yangi bazaviy stansiya qurish va 200 tacini modernizatsiya qilish, har bir aholi punktini 10 Mb/coatdan kam bo'lmagan tezlikdagi Internet tarmoriga ulash; 90,9 ming gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlarining suv ta'minotini, 208 ming gektar maydonning meliorativ holatini yaxshilash va 45 ming gektar ekin yerlarida suvni tejavchi texnologiyalarni joriy qilish;

b) ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish sohasida:

21 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 400 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti binolarini qurish, 55 tacini rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, 20 ta maktabgacha ta'lim tashkilotini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish; 7 ta umumiy o'rta ta'lim maktabini qurish, 101 ta maktabni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu asosda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi o'rni koeffitsiyenti 1,1 foizdan oshib ketmasligini ta'minlash; 32 ta tibbiyot myaccacacini qurish, rekonstruksiya qilish hamda xususiy tibbiyot tashkilotlarini tashkil etish, shu asosda tibbiyot muassasalarining qabul qilish quvvatini 20,4 mingga, o'rinlar sonini 7,1 mingga yetkazish; 21 ta madaniyat obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shu asosda aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtining mazmunli o'tishini ta'minlash; 181 ta maktabni "Bir million dasturchi" loyihasiga kiritish va 3 mingdan ortiq yoshlarni kompyuter dasturlash asoslariga o'rgatish orqali raqamli texnologiyalar yo'nalishida yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni berish; 39 ta sport obyektni qurish, rekonstruksiya qilish, qo'shimcha 83 ming nafar aholi va yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shu asosda yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish;

v) 7 004 ta xonadonli 235 ta zamonaviy ko'p kvartirali turar joy majmuasini barpo etish, shuningdek, yosh oilalar va kam ta'minlangan aholi uchun 2 084 ta xonadonli 36 ta arzon uy-joy qurilishini tashkil etish orqali ularning uy-joy sharoitini yaxshilash;

g) investitsiyalarni faol jalb etish va hududning eksport salohiyatini rivojlantirish sohasida: 2020–2022-yillarda hududiy investitsiya loyihalari doirasida umumiy qiymati 12,3 trillion so'mlik 1 359 ta loyihani ishga tushirish va 17,5 mingta yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek, 523 million dollar miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish;

e) qishloq xo'jaligini rivojlantirish, shu jumladan, chorvachilik, baliqchilik, sholichilik va kunjut yetishtirish hamda qayta ishlash klasterlarini tashkil qilish sohasida: 12 ming gektar yer maydonida paxta yetishtirishni bekor qilish;

foydalanishdan chiqqan 35 860 gektar yer maydonlarini o‘zlashtirish; qishloq xo‘jaligi foydalanishiga qayta kiritiladigan 875 gektar yer maydonlarida issiqxonalar tashkil qilish; muzlatkichli omborxonalar quvvatini 40,8 ming tonnaga oshirish; qishloq xo‘jaligi texnikalari sonini 1,4 mingtagacha oshirish; naslli qoramollar sonini qo‘shimcha 30 ming boshga oshirish; 30 ming gektar yer maydonlarida kunjut yetishtirish va mahsulotni to‘liq eksportga yo‘naltirish; baliq yetishtirish hajmini ikki baravarga oshirish hisobiga baliq mahsulotlarini 2021-yilda 35 ming tonnaga, 2022-yilda 50 ming tonnaga yetkazish<sup>13</sup>.

Bu belgilangan vazifalarni amalga oshirishda investitsiyalarni islomiy moliyalashtirish usullarini qo‘llash muhim amaliy ishlardan biri hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirish usullarini “yashil” moliyalashtirish, xalqaro fondlar va grantlar singari innovatsion moliyalashtirish vositalari bilan muvofiqlashtirish barqaror va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiya loyihalariga olib kelishi mumkin. Ushbu integratsiya islom moliyasiga axloqiy va ekologik jihatdan ongli ravishda sarmoya kiritish tamoyillariga mos keladi. Shunga asoslangan holda, investitsiya loyihalarining “yashil” moliyalashtirish, xalqaro jamg‘arma va grantlar singari innovatsion moliyalashtirish instrumentlariga muvofiqlashtirilgan holda islomiy moliyalashtirish usullarini qo‘llash usullarining rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Yashil sukuk: Islom moliya institutlari ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan shariatga mos obligatsiyalar bo‘lgan yashil sukuk chiqarishi mumkin. Ushbu obligatsiyalardan tushgan mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya loyihalari, barqaror infratuzilma va tabiatni muhofaza qilish harakatlari kabi atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi tashabbuslarni moliyalashtirish uchun qo‘llaniladi.


Yashil loyihalarni vaqfga asoslangan moliyalashtirish: Vaqf islomiy xayriya jamg‘armasi bo‘lib, turli ijtimoiy va ekologik tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Yashil loyihalarga bag‘ishlangan Vaqf fondlarini tashkil etish orqali resurslar barqarorlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantiruvchi tashabbuslarga ajratilishi mumkin.

Xalqaro yashil fondlar bilan hamkorlik: Islom moliya institutlari barqaror loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlovchi xalqaro yashil fondlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu hamkorlik islom moliya tamoyillari va ekologik barqarorlik maqsadlariga mos keluvchi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun resurslar va tajribalarni birlashtirish imkonini beradi.

Xalqaro grantlar va yordamlardan foydalanish: Islom moliya institutlari barqaror rivojlanishga bag‘ishlangan xalqaro grantlar va yordam dasturlarini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishi mumkin. Ushbu mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni boshqarish va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarni o‘z ichiga olgan turli sohalardagi yashil tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llanilishi mumkin.

---

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi.PQ-4889-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-5100705>



**3-rasm. Investitsiya faoliyatini islomiy moliyalashtirish usuli “yashil” moliyalashtirish tizimi<sup>14</sup>**


**Yashil tadbirkorlik uchun islom mikromoliyalashi:** Islom mikromoliya institutlari ekologik barqaror faoliyat bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar va kichik biznesni moliyalashtirishi mumkin. Bunga yashil energiya, organik dehqonchilik, ekoturizm va boshqa ekologik ongli tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

**Yashil fokusli ijtimoiy ta’sir fondlari:** Islomiy moliya institutlari ekologik barqaror loyihalarga alohida e’tibor qaratgan holda ijtimoiy ta’sir fondlarini tashkil etishi mumkin. Ushbu mablag‘lar nafaqat moliyaviy daromad keltiruvchi, balki atrof-muhit va jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi tashabbuslarni moliyalashtirishi mumkin.

**Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) standartlariga muvofiqligi:** Islom moliya institutlari investitsiya mezonlarida ESG standartlari va tamoyillarini qabul qilishi mumkin. Bu investitsiyalar, shu jumladan innovatsion moliyalashtirish vositalari orqali moliyalashtiriladigan sarmoyalarning axloqiy va ekologik mezonlarga javob berishi va shu bilan birga shariatga muvofiqligini ta’minlaydi.

**Ta’lim va xabardorlik:** Islomiy moliyalashtirishni yashil moliyalashtirish bilan birlashtirishning afzalliklari haqida manfaatdor tomonlarni xabardor qilish va o‘rgatish bunday tashabbuslarga qiziqish va ishtirokni kuchaytirishga yordam beradi. Bu sarmoyadorlar, korxonalar va hamjamiyatlarni ekologik barqaror investitsiyalarning ijobiy ta’siri haqida o‘qitishni o‘z ichiga oladi.

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi.



#### 4-rasm. O'zaro bog'langan investitsiya loyihalarini portfelini moliyalashtirishda "Murobaha" islomiy moliyalashtirish instrumentidan foydalanish<sup>15</sup>

O'zaro bog'langan investitsiya loyihalarini portfelini moliyalashtirishda "Murobaha" islom vositasidan foydalanish diversifikatsiya va risklarni boshqarish uchun strategik yondashuv bo'lishi mumkin. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

**O'zaro bog'langan investitsiya loyihalarini tanlash:** Sanoat, geografiya yoki boshqa tegishli omillar nuqtai nazaridan o'zaro bog'langan bir qator investitsiya loyihalarini aniqlash. Bu loyihalar birgalikda amalga oshirilganda bir-birini to'ldirishi va sinergiya yaratishi kerak.

**Murobaha operatsiyalarining tuzilishi:** Har bir tanlangan loyiha uchun Islom moliya instituti (masalan, bank) Murobaha kelishuvi bo'yicha loyiha uchun zarur bo'lgan zarur aktivlar yoki tovarlarni sotib oladi. Murobahada moliya instituti xarid agenti vazifasini bajaradi va aktivlarni mijozga belgilangan narxda sotadi, bunga xarajatlar va kelishilgan foyda marjasi kiradi.

**Shariat tamoyillariga rioya qilish:** Murobaha bitimlarining shariat tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash, masalan, narx belgilashning shaffofligi, aktivlarga moliyaviy institutning sotishdan oldin egalik qilishi, foiz yoki sudxo'rlik yo'qligi.

**Portfelni diversifikatsiya qilish:** Diversifikatsiyaga erishish uchun moliyalashtirishni turli loyihalar bo'yicha taqsimlash. Bu xavf va potensial daromadlarni turli sektorlar yoki sohalar bo'ylab tarqatishga yordam beradi, har qanday loyihada kam ishlash ta'sirini kamaytiradi.

**Xavfni baholash va tegishli tekshiruv:** Har bir investitsiya loyihasi bo'yicha uning fizibilitetini, potensial daromadlarini va bog'liq risklarni baholash uchun to'liq tekshiruvdan o'tkazish. Bu bozor sharoitlarini, me'yoriy hujjatlarga muvofiqlikni va moliyaviy prognozlarni baholashni o'z ichiga oladi.

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi.

Portfelni boshqarish: Har bir investitsiya loyihasining borishi va samaradorligini kuzatish uchun mustahkam portfelni boshqarish strategiyasini amalga oshirish. Bu muntazam hisobot, moliyaviy tahlil va risklarni baholashni o'z ichiga olishi mumkin.

Foyda taqsimoti va qaytarilishi: Loyihalar daromad keltirar ekan, foyda tomonlar o'rtasida Murobaha shartnomasi shartlariga muvofiq taqsimlanadi. Mijoz moliyaviy institutga davriy to'lovlarni amalga oshiradi, shu jumladan xarajatlar va foyda ham.

Xatarlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish: Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf yoki muammolarni hal qilish uchun favqulodda vaziyatlar rejalarini ishlab chiqish. Bu ortiqcha xarajatlar, kechikishlar yoki bozor o'zgarishlarini boshqarish strategiyalarini o'z ichiga olishi mumkin.

Monitoring va hisobot: Portfeldagi har bir loyihaning samaradorligini kuzatish uchun monitoring tizimini joriy qilish. Har bir investitsiyaning moliyaviy va operatsion holati to'g'risida yangilanishlarni taqdim etish uchun muntazam hisobotlar yaratilishi kerak.

Chiqish strategiyalari: Loyihaning yetukligi, bozor sharoitlari va investorlarning afzalliklari kabi omillarni hisobga olgan holda har bir loyiha uchun chiqish strategiyasini belgilang. Bunga loyihani sotish, qayta moliyalashtirish yoki uni uzoq muddatga saqlash kabi variantlar kiradi.

O'zaro bog'langan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va diversifikatsiyalangan portfel yaratish uchun Murobaha moliyalashtirishdan foydalanish orqali islomiy moliya tamoyillariga rioya qilgan holda portfelning umumiy tavakkalchilikka moslashtirilgan daromadlilikini oshirish mumkin. Shariat tamoyillariga rioya qilishni ta'minlash va Murobaha operatsiyalarining murakkabliklarini yo'lga qo'yish uchun tajribali islomiy moliya maslahatchilari va huquqshunoslar bilan hamkorlik qilish muhim.

